


#### IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH


2025- yil yanvar-mart oylarida viloyatning asosiy kapitalini ko'paytirishga 16 112,9 mlrd so'm miqdorida investitsiyalar o'zlashtirilib, o'sish sur'ati 113,7 % ni tashkil qildi. Asosiy kapitalga kiritilgan jami investitsiyalarning 11 264,7 mlrd so'mi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga to'g'ri keldi. Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar 2025- yilning yanvar-mart oylarida 5 172,7 ming so'mni tashkil etdi.

2025- yil yanvar-mart oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng ko'p ulushi Olmaliq shahar (20,3 %), Bo'ka (8,5 %), Bo'stonliq (7,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

**2025- yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi (mlrd so'm)**




**2025- yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar o'sish sur'atlari (% da)**



Ayrim hududlarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi. Jumladan, o'tgan yilning shu davriga nisbatan Bo'ka tumanida – 15,9 m., Piskent tumanida – 15,1 m., Parkent tumanida – 2,8 m. yuqori bo'ldi.

**2025- yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida  
aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar miqdori  
(ming soʻmda, % da)**



Hududlar kesimida aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan investitsiyalar hajmining yuqori koʻrsatkichlari Olmalik shahrida – 21 977,0 ming soʻm, Piskent tumanida – 11 467,8 ming soʻm, Ohangaron tumanida – 10 392,0 ming soʻmni tashkil etdi.

Aksincha, past koʻrsatkich Bekobod tumanida – 962,8 ming soʻm, Parkent tumanida – 1 122,6 ming soʻmni tashkil etdi.


**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi**

	<i>mlrd so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>	<i>yakunga nisbatan %</i>
<b>Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar</b>	<b>16 112,9</b>	<b>113,7</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>1 031,2</b>	<b>121,8</b>	<b>6,4</b>
Budjet mablag'lari	298,6	83,6	1,9
O'zR Moliya vazirligi huzuridagi suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi	-	-	-
Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'lari	-	-	-
Hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	732,6	2,5 m.	4,5
<b>Markazlashmagan investitsiyalar</b>	<b>15 081,7</b>	<b>113,1</b>	<b>93,6</b>
Korxonalarining o'z mablag'lari	2 852,5	104,7	17,7
Bank krediti (boshqa qarz mablaglarini qo'shgan holda)	391,7	84,2	2,4
<b>To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar</b>	<b>6 363,0</b>	<b>146,2</b>	<b>39,5</b>
Aholi mablag'lari	1 305,3	114,3	8,1
Boshqa va kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar	4 169,2	89,7	25,9

2025- yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalariga ko'ra, eng yuqori ko'rsatkich (jami investitsiyalarning 42,2 foizi) to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobiga (6 363,0 mlrd so'm) to'g'ri keldi.


**2025- yil yanvar-mart oylari uchun asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari.**

**Markazlashgan**



- Respublika budjeti
- Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi

**Markazlashmagan**



- Korxonalar o'z mablag'lari
- Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari
- To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya
- Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar
- Aholi mablag'i

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning o'zlashtirilgan hajmi 2025- yilning yanvar-mart oylarida 6 363,0 mlrd so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 42,2 % ga oshdi. Bunda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha yuqori ko'rsatkich Bo'ka tumani (1 272,5 mlrd so'm) va Ohangaron tumani (933,8 mlrd so'm) ga to'g'ri keldi.

Aksincha, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha past natijalar Yangiyo'l tumanida (12,9 mlrd so'm) va Yangiyo'l shahrida (19,4 mlrd so'm) kuzatildi.

**Asosiy kapitalga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya  
va kafolatlanmagan kreditlar**


(mlrd so'm)

	Jami xorijiy investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		To'g'ridan – to'g'ri xorijiy investitsiya	Kafolatlanmagan kreditlar
		Investitsiya	Kredit		
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>10 532,2</b>	<b>6 363,1</b>	<b>4 169,1</b>	<b>6 363,1</b>	<b>3 353,1</b>
<i>shaharlar:</i>					
Nurafshon	322,4	322,4	0,0	322,4	0,0
Olmaliq	1 843,4	474,4	1 368,9	474,4	1 368,8
Angren	449,3	449,3	0,0	449,3	0,0
Bekobod	249,3	90,3	159,0	90,3	159,0
Ohangaron	116,2	116,2	0,0	116,2	0,0
Chirchiq	954,6	412,4	542,3	412,4	126,3
Yangiyo'l	84,1	19,4	64,7	19,4	64,7
<i>tumanlar:</i>					
Oqqo'rg'on	135,9	0,0	135,9	0,0	135,9
Ohangaron	1 028,3	933,8	94,4	933,8	68,6
Bekobod	115,2	0,0	115,2	0,0	0,0
Bo'stonliq	688,8	429,9	258,9	429,9	0,0
Bo'ka	1 315,2	1 272,5	42,7	1 272,5	42,7
Quyichirchiq	313,9	228,6	85,3	228,6	85,3
Zangiota	251,4	251,4	0,0	251,4	0,0
Yuqorichirchiq	700,2	700,2	0,0	700,2	0,0
Qibray	141,3	79,9	61,4	79,9	61,4
Parkent	71,2	71,2	0,0	71,2	0,0
Piskent	1 130,4	265,4	865,1	265,4	865,1
O'rta Chirchiq	121,6	121,6	0,0	121,6	0,0
Chinoz	111,3	111,3	0,0	111,3	0,0
Yangiyo'l	258,8	12,9	245,9	12,9	245,9
Toshkent	129,4	0,0	129,4	0,0	129,4


**2025- yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi**

	<i>Jami mlrd so‘m</i>	<i>umumiy hajmga nisbatan % da</i>
<b>Jami</b>	<b>16 112,9</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan</i>		
qurilish-montaj ishlari	8 531,1	53,0
mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlar	5 755,5	35,7
boshqa harajatlar	1 826,3	11,3

2025- yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibining 53,0 % ni qurilish-montaj ishlari tashkil qilib, umumiy hajmga nisbatan yuqori ulushga ega bo‘ldi.



**Toshkent viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan ulushi % da**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tog'-kon sanoatida – 3 881,4 mlrd so'm (24,1 %), ishlab chiqarish sanoatida – 3 129,3 mlrd so'm (19,4 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 2 901,5 mlrd so'm (18,0 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 2 348,1 mlrd so'm (14,6 %), uy-joy qurilishida – 1 177,8 mlrd so'm (7,3 %), Suv bilan ta'minlash va kanalizatsiyada – 281,4 mlrd so'm (1,7 %), tashish va saqlashda – 80,4 mlrd so'm (0,5 %), qurilishda – 751,8 mlrd so'm (4,7 %), malakaviy, ilmiy va texnikaviy faoliyatda – 147,9 mlrd so'm (0,9 %), boshqa faoliyat turlari – 1 413,2 mlrd so'm (8,8 %) investitsiyalar o'zlashtirildi.


### Ijtimoiy soha obyektlarini qurilishi

2025-yil yanvar-mart oylarida umumiy maydoni 1 924,4 ming kv.m. bo'lgan 7 079 ta uy-joy, shundan, qishloq joylarida 1 466,6 ming kv.m. bo'lgan 4 941 ta uy-joy foydalanishga topshirildi.

**Qurilish faoliyati.** 2025-yil yanvar-mart oylarida 6 562,5 mlrd so'mlik qurilish-pudrat ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 120,1 % ni tashkil etdi.


### Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish tashkilotlarining o'z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti

(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 84,2 mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan esa 6 478,3 mlrd so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi mos ravishda 1,3 % va 98,7 % ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati**  
(2024- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan, % da )



Xususan, yuqori o'sish sur'atlari Olmaliq shahar (2,1 m.), Parkent (127,7 %), Zangiota (112,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Aksincha, eng past ko'rsatkich O'rta Chirchiq (104,5 %) tumani va Ohangaron (104,8 %) shahriga to'g'ri keldi.